

**2-kurs talabalari uchun “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan Oraliq va
Yakuniy nazorat savollari**

1. Leksikologiyaning maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot bering.
2. Leksikologiyaning qanday turlari bor ?
3. Leksikologiya tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan aloqada bo'ladi?
Sabablari?
4. Leksik va grammatik mazmunli so'zlar tilshunoslikning qaysi bo'limlarida o'rganiladi?
5. Leksikologiyada lug'at boyligining sistema sifatida o'rganilishi
6. So'z – tilning eng muhim nominativ birligi
7. Leksemlarning leksik birlik sifatidagi tavsifi
8. Leksemaning ifoda plani
9. Leksemaning mazmun plani
10. *Leksema, nomema, semema* atamalarini tushuntiring.
11. Leksemaning ifoda va mazmun planlari haqida ma'lumot bering.
12. Leksemaning semantik tarkibiga nimalar kiradi?
13. Leksemaning yaxlit bir butun ekanligi nimalarda namoyon bo'ladi ?
14. Leksik ma'no nima?
15. Leksemsning semantic tarkibidagi qo'simcha ottenkalar qaysilar?
16. Denotat, referent nima ?
17. Signifikat nima ?
18. Valentlik haqida ma'lumot bering.
19. Leksik ma'no va tushuncha haqida ma'lumot bering, leksik ma'noning lingvistik kategoriya, tushunchaning esa logik kategoriya ekanligini tushuntiring.
20. Leksemaning semantik tarkibida leksik ma'nodan tashqari yana nimalar bo'lishi mumkin ?
21. Ifoda semalari va turkumlik semalari haqida ma'lumot bering.
22. Nima uchun uzual ma'no til birligi, okkazional ma'no esa nutq birligi sanaladi?

23. Leksik monosemiya hodisasini qanday tushunasiz? Leksik polisemiyaning-chi?
24. Monosemiya hodisasi qanday lugʻaviy birliklarga xos?
25. Maʼno taraqqiyotining qanday yoʻllari bor?
26. Okkazional maʼnoni tushuntiring
27. Okkazional maʼnolar qanday yuzaga keladi ? Okkazional maʼno uzual maʼnoga aylanishi mumkinmi ?
28. Leksik maʼno taraqqiyoti haqida umumiy maʼlumot bering
29. Metafora yoʻli bilan maʼno koʻchirilishi
30. Vazifadagi oʻxshashlik asosida maʼnoning koʻchirilishi
31. Sinekdoxa yoʻli bilan maʼnoning koʻchirilishi
32. Maʼnoning kengayishi va torayishi
33. Leksik maʼno taraqqiyoti natijalari
34. Leksik sinonimiya
35. Sinonimiya nima? Sinonimik qator va dominanta haqida maʼlumot bering.
36. Maʼno sinonimlari, uslubiy sinonimlar va nutqiy sinonimlar qanday farqlanadi?
37. Kontekstual sinonimiya
38. Leksemalarning sinonim boʻla olmaydigan holatlari
39. Sinonimiya va polisemiya oʻrtasida qanday bogʻlanish mavjud ?
40. Sinonimiya hodisasi tilning qaysi sathlarida uchraydi ?
41. Sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi rolini tushuntiring.
42. Antonimiya nima? Antonimiya hodisasining soʻz turkumlariga munosabatini tushuntiring.
43. Kontekstual antonimiya haqida maʼlumot bering.
44. Antonimiya va enantiosemiya hodisalarini tushuntiring.
45. Antonimiya va polisemiya oʻrtasidagi bogʻlanishni tushuntiring.
46. Antonimiya hodisasi bilan bogʻliq qanday munozali masalalarni bilasiz ?
47. Antonimiya hodisasining mezon sifatida qaraladigan « mantiqiy markaz » haqida maʼlumot bering.
48. Antonimlardan qanday uslubiy vosita sifatida foydalaniladi ?
49. Omonimiya nima? Leksik omonimiyaning turlari haqida maʼlumot bering.

50. Omonimlar va omoformalar (omonim omoleksemalar va omoforma omoleksemalar) qanday farqlanadi ?
51. Omonimlarning soʻz turkumlariga munosabati haqida maʼlumot bering.
52. Omonimlar qanday yuzaga kelgan ?
53. Omonimiya va polisemiya qanday farqlanadi ?
54. Omonimlarga yondosh boʻlgan qanday hodisalar bor ?
55. Omonim va omoformalarning uslubiy vosita sifatidagi roli haqida aytib bering.
56. Paronimiya
57. Paronimlar va omonimlar qanday farqlanadi?
58. Paronimlarning nutqda uslubiy vosita sifatida qoʻllanishi (paronomaziya)
59. Paronimiya hodisasining nutqqa tasiri bormi?
60. Oʻzbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti jarayonida soʻz va leksemalarning qanday qatlamlari yuzaga kelgan?
61. Oʻz qatlam qanday soʻzlardan tarkib topgan?
62. Qanday soʻzlar umumturkiy leksemalar sanaladi? Buning sababi?
63. Umumturkiy leksemalarning fonetik, semantik va grammatik belgi-xususiyatlari haqida maʼlumot bering.
64. Qanday soʻzlar sof oʻzbek tili lugʻaviy birliklari hisoblanadi?
65. Oʻzlashgan qatlam qanday soʻzlardan tarkib topgan?
66. Arab tilidan soʻz oʻzlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida maʼlumot bering.
67. Arabcha oʻzlashmalarning soʻz turkumlari boʻyicha taqsimoti qanday?
68. Fors-tojik tillaridan soʻz oʻzlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida maʼlumot bering.
69. Oʻzbek tili lugʻat boyligidagi sinonimiya hodisasining rivojlanishida fors-tojik tillaridan soʻz oʻzlashtirishning qanday ahamiyati bor ?
70. Rus tilidan soʻz oʻzlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari haqida gapiring.
71. Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, oʻzbek tiliga rus tilidan oʻzlashgan leksikada qanday oʻzgarishlar yuz berdi ? Buning sabablari ?
72. Soʻz oʻzlashtirishning qanday yoʻllari va usullari bor ?

73. Soʻz oʻzlashtirish va chet soʻzlarini qoʻllash hodisalari qanday baholanadi ?
74. Ishlatilish doirasiga koʻra leksemalar qanday guruhlanadi ?
75. Dialektizmlar nima? Uning qanday turlari bor? Dialektizm-soʻz va dialektizm-maʼno qanday farqlanadi?
76. Kasb-hunar leksikasi qanday soʻzlarni oʻz ichiga oladi?
77. Terminlar qoʻllanishi chegaralangan leksikaning qaysi turiga kiradi?
78. Argotizm va jargonizmlar nima? Vulgarizmlar-chi?
79. Dialektizm, professionalizm, argotizm, jargonizm va vulgarizmlardan nutqning qaysi turlarida uslubiy vositalar sifatida foydalaniladi ?
80. Tilning lugʻat boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlari qanday omillar taʼsirida yuz beradi?
81. Individual nutq neologizmi va umumtil neologizmi haqida maʼlumot bering.
82. Eskirish jarayonining natijalari nimalarda namoyon boʻladi ?
83. Leksik istorizm va leksik arxaizm qanday farqlanadi ?
84. Individual nutq neologizmi va umumtil neologizmi haqida maʼlumot bering.
85. Uslubiy boʻyoqdorlik jihatdan soʻzlar qanday qatlamlarga ajratiladi?
86. Emotsional-ekspressiv jihatdan boʻyoqdor soʻzlardan nutqda qanday maqsadlarda foydalaniladi?
87. Nutqda ekspressivlikning ifodalanishi qanday usullarga asoslanadi?
88. Rasmiy va badiiy nutqlarda qoʻllanishga xoslangan soʻzlar qanday farqlanadi?
89. Soʻzlashuv nutqida qoʻllanishga xoslangan soʻzlar, ularning maʼno xususiyatlari haqida maʼlumot bering.
90. Badiiy nutq va badiiy asar tili qanday farqlanadi?
91. Nutqning u yoki bu turiga xos bolgan fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar haqida maʼlumot bering.
92. Frazemalar. Frazemlarning ifoda va mazmun plani.
93. Frazologik monosemiya.
94. Frazologik polisemiya.
95. Frazemalarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari.
96. Leksikografiya. Lugʻatlarning koʻzlangan maqsadga koʻra turlari.

97. Obyekti va predmetiga ko‘ra farqlanadigan lug‘atlar
98. Lug‘at maqolalarining joylashtirilish tartibi.
99. O‘zbek lug‘atchiligi tarixidan qisqacha ma’lumot.
100. Mustaqillik davri o‘zbek lug‘atchiligi.

Tuzuvchi: prof. G. Kurboniyazov